
YANGI O'ZBEKISTON MENING TAQDIRIMDA



Vatanimiz Mustaqilligining o'ttiz yilligini "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" degan bosh g'oya bilan munosib kutib olish arafasidamiz. O'zbekiston atalmish shu buyuk Vatanga xalqimizning muhabbatini ifodalovchi bu ezgu so'z har bir xonadonga, har bir yurtdoshimiz qalbiga cheksiz g'urur, faxr va iftixor bag'ishlaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon har bir sohadagi o'zgarishlar tabora yaxshi tamonga odimladi va kurtak yozdi. O'tgan o'ttiz yil davomida mamlakatimizda asrlarga tatigulik bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, tarix bilmas o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlarning ulug'vorligini his etish uchun yurtimizning barcha shahar va qishloqlaridagi ulkan bunyodkorlik ishlarini ko'rish, qalban his etishning o'zi yetarli deb o'ylayman.

Faxr bilan aytish kerakki, biz bugun jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega, iqtisodiyoti barqaror rivojlanayotgan, erkin fuqarolik jamiyati sari dadil qadam tashlayotgan kelajagi buyuk va qudratli mamlakatda yashamoqdamiz. Xususan, muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nihoyatda ulug'vor maqsadlar o'z ifodasini topgan. Bu dasturiy hujjat orqali mamlakatimizning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotini tubdan yangilash, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini real voqelikka aylantirish borasida ko'plab yutuqlar qo'lga kiritildi. Butun dunyoda davom etayotgan koronavirus pandemiyasi, shuningdek, boshqa turli tahdid va xatarlarga qaramasdan, xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lida amaliy harakatlar qilinmoqda.

Jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik muhiti mustahkamlanmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida keng ko'lamli islohotlar, yurtimizdagi barcha sohalarni erkinlashtirish, iqtisodiyot va uning tarmoqlarini, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rinlari va daromad manbalarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

Yurtimizning har-bir fuqarosi Mamlakatimizning yangi taraqqiyot davri uchun poydevor yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlarimizni yanada kuchaytirishimiz, Davlatimiz mustaqilligining ulkan siyosiy, tarixiy va ma'naviy-ma'rifiy hamda istiqlol yo'lining asosiy maqsad va vazifalarini yangi bosqichga ko'tarishda vatanga bo'lgan fidokorona mehnatlarimiz orqali o'z xissamizni qo'shishimiz va bu, eng qutlug' bayramni munosib yuksak saviyada keng nishonlash burchimizdir.

N.Otabekov,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tuman bo'linmasi rahbari

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-08-21 21:34:33